



JANUBIY OROL BO'YIDAGI TEMIR DAVRI YODGORLIKLARI. QO'RG'ONLIQIR I, QO'RG'ONLIQIR II, XAZORASP, AYOZQAL'A.

Sabirbaev Alisher Nurlibay o'g'li

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Arxeologiya ta'lim yo'nalishi
2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Maqolamizda Janubiy Orol bo'yidagi bazi bir tarixiy yodgorliklar - Qo'rg'onliqir I, Qo'rg'onliqir II, Xazorasp, Ayoqzal'a singari yodgorliklar tahlil qilib o'tilgan. Shuningdek, ushbu yodgorliklarning o'lkamiz tarixi va arxeologiyasidagi o'rni va ahamiyati haqida shu sohadagi chet el olimlarining bir nechta ilmiy xulosalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Sag'irqir, saroy tarhi, doiralar galeriyasi, materik, "qaldirg'och dumi" formasi, zodiaklar, ichki koridor, bastion, kollonnalar, yarim ellips, sokol

Janubiy Orol bo'yi mintaqasida temir asriga tegishli bo'lgan ko'plab yodgorliklar bo'lib ular har tomonlama chuqur o'rganilayotgani shubhasiz. Ko'plab yodgorliklarda tadqiqot ishlari davom etmoqda. Bunday yirik yodgorliklar sirasiga Ko'zaliqir, Qo'rg'onliqir I, Qo'rg'onliqir II, Xazorasp qal'asi, Qang'xa - qo'rg'on singari qal'alarni va boshqa qal'alarni kirgazish mumkin.

Shunday yirik markalardan biri bu Ko'zaliqir (Sag'irqir) - Xorazm hududidagi eng qadimiy arxeologik yodgorlik bo'lib, Tashhovuzdan 60 km g'arbda joylashgan. Maydoni 25 gektar bo'lgan himoyalani qoldiqlarini o'zida jam etib, avvalo tepalikning janubi-g'arbiy qismini egallagan. Keyinroq devorning shimoliy qismidan dastlabki jamoat vakillari tomonidan yana 13 gektar hudud o'zlashtirilgan hisoblanadi. Qal'achani ikki parallel devorlar o'rab turgan bo'lib, ular orasidagi dahlizning kengligi 2,5 metrni tashkil qiladi. Devorlar xom g'ishtdan va paxsadan qurilgan bo'lib 1-1,5 metr qalinlikda bo'lgan. Tashqi himoya devorida 2 metr oraliqda juda ko'p mug'dorda tor o'q otadigan joylar, har 35 metrda bo'lsa - yumaloq yoki to'g'ri burchak shaklidagi qadamjolar bor. Uch darvozaning o'rni aniqlandi. Yuqori qal'ada asosiy o'rinni bir nechta tartibsiz me'moriy majmualar egallagan bo'lib, tadqiqotchilarning uni mahalliy qabila birlashmalarining diniy va maishiy markazini o'zida jam qilgan saaroy deb hisoblaydi. Ko'zaliqirning kulolchilik idishlari oyoq va qo'l bilan ishlatiladigan kulolchilik charxi yordamida yasalgan, metallni qayta ishlash juda yuqori darajaga yetgan. Bronza davr o'qlarining uchlari, ot anjomlari, ayollar taqinchoqlari va boshqalar yasaladi. Xalqning uskunasi bilan kulolchilik bilan shug'ullangan bo'lib ularning asosiy ishi yaylov uy chorvachiligi hisoblanar edi.

Ko'zaliqir arxeologik manbalari So'g'd, Marg'iyona va janubiy Baqtriyaning majmualari bilan bir qatorda yagona, yirik etnomadaniy mintaqaning bir turdagi moddiy qatlami o'zida jam qiladi.



Qo'rg'onliqir I (Ayritom) – Tashhovuzdan 40 km janubi-g'arbda joylashgan miloddan avvalgi V-IV asrlarga xos bo'lgan shahar qoldig'i bo'lib, Davdon daryosining qadimgi quyilish o'rnini janubiy bo'ylarida, deyarli Go'nevoz shahri yonida joylashgan. Qadimgi Xorazm vohasidagi maydoni jihatidan eng yirik manzilgoh (700x1000 m). Uning to'g'ri burchakli hududi hozirgi kunda qumliklar bilan o'ralgan. Qal'aning minoralar bilan mustahkamlangan devorlari, mustahkam himoyalangan imoratlar, labirintlar va bastionlar bilan himoyalangan 4 darvoza bo'lgan. Shahar xalqining hayoti butun hududni egallagan, uzun, keng va baland devorlar bilan o'ralgan, uchaklari gumbazsimon uylarda umr surgan.

G'arbiy devorning ichki bo'lagida ikki tashqi va ikki ichki hovliga ega bo'lgan katta saroy (saroy tarhi - 80x80 m) qad ko'targan. Hovlilarning perimetri bo'ylab 30 ga yaqin harxil xonalar joylashgan. Saroyning zallarini kollonnalar ko'tarib turgan tekis tepaga ega bo'lib, kollonalarining qismlari saqlanib qolgan. Bu joy devorlar singari qurilishi tugallanmagan, sababi shaharcha xalq tomonidan tark etilgan bo'lib hisoblanadi. Ahamoniylarning Xorazmda hukmronlik davrlarida paydo bo'lgan qo'rg'on, ularga janubiy Davdonning yirik sug'orish tizimlarini o'z qo'lida tutib turish uchun kerak bo'lgan.

Qang'xa – qo'rg'on, Sariqamish ko'li yonida Qang' yonida Tashhovuzdan 150 km shimoli-sharqda joylashgan qo'rg'on. Uning yonidan Qang'xa daryosining qadimiy bir qismi oqib o'tgan bo'lib bu irmoq janubiy Davdonning quyi oqimi tarkibiga kirgan. Bu qo'rg'on ming yil davomida : miloddan avvalgi V asrdan miloddan avvalgi IV asrga qadar amalda bo'lgan. To'g'riburchakli (233x200 m) qo'rg'on hududida mustahkam turar joy imorati aniqlangan. Devorlari xom g'ishtdan qurilgan, bu holatta devor ichki g'adir-budir yo'l (o'q otish galeriyasi) bor, tashqi tomonidan bo'lsa, to'g'ri burchakli minoralar tutashib ketgan. Janubi-g'arbiy devorda murakkab himoyalangan qurilmalari bor. Bazi joylarda uzunligi 35 metrli xandoqning o'rnini ko'rinib turadi. Qo'rg'on harbiy harakatlar natijasida yemirilish : yuqori qatlam bo'ylab yong'in izlari tarqalgan, Qang'xa qal'aning daryo tomondan orqaburchak yonida devorda yirik yoriqlar ko'zga tashlanadi.

Albatta bu joydan dushman kirib kelgan deb xulosa qilish mumkin.

Qang'xa II – Xorazmning chap qirg'og'idagi dasstlabki temir davriga oid (mil.avv IX-V asrlar) eski arxeologik manzilgoh, Tashhovuzdan 150 km janubi-g'arbda joylashgan. Hozirgi kunga qadar 9 metrli devor saqlanib qolgan.

Qo'rg'on hududida 4 ga yaqin kulolchilik buyumlari, baliqchilikning tosh va ssuyakdan yasalgan qurollari topilgan. Loydan yasalgan idish buyumlarning ko'mir bilan kuyib ketgan qoldiqlari miloddan avvalgi VI-V asrlarda Qang'xa II da yuz bergan falokattan darak berib, shundan keyin bu yerda hayot qayta tiklanmagan.

Qirqmulla – 3 gektar maydonni egallagan 12 metr tepalik Go'neurganchdagi Takash mozoridan 200 metr shimoli-sharqda joylashgan. Tepalikning g'arbiy qanoti o'rganilishi natijasida xom g'ishtdan qurilgan yirik himoya devorini va kvadrat ko'rinishidagi uchminoraning ochilishiga imkon yaratdi. Bu yerdan topilgan loydan



yasalgan idishlarning dastlabki namunalari miloddan avvalgi V asrga to'g'ri keladi.

Quyisoy II – Xorazmda dastlabki temir davriga xos bo'lgan (mil.avv VII-VI asrlar) arxeologik manzilgoh, Shoxsanam qo'rg'onidan 13 km shimoli-sharqda joylashgan. Ikki daryoning ajralish qismida joylashgan. 12 metr maydonni egallagan. Shaharchadan topilgan o'ziga xos keramik materiallar tadqiqotchilarni Xorazmning chap sohilida alohida Quyisoy madaniyatini ajratib ko'rsatishga imkon yaratdi.

Ayozqal'a I qal'asi. Yodgorlik o'lchamlari 182,5x152 metr bo'lib to'g'ri burchak shaklida qurilgan, qo'shdevor zarang qatlam (materik) ustida ko'tarilgan va bazi joylarda 10 metrdan ortiq balandlikda saqlanib qolgan. Tashqi devorning qalinligi asosida 2,4 metr, ichki devorniki – 1,7 – 2,1 metr bo'lgan.

Kirish qismi qo'rg'onning janubiy devorida bo'lib, shimoliy devorda dara bo'lgan to'g'riburchak shaklidagi darvoza imorati bilan himoyalangan. Darvoza kirish joyi bir-biridan 4,4 metr oraliqda joylashgan to'g'riburchak shaklidagi ikki zodiak bilan mustahkamlangan.

Qo'rg'on shimol va g'arb devorlarni bir-biridan 13,8 metr oraliqda, shimoliy devorda bo'lsa 11,5 metr oraliqda joylashgan yarim ellips shaklidagi zodiaklar bilan kuchaytirilgan. Qo'rg'onning to'rt burchagida zodiaklar egri "qaldirg'och dumi" shaklida joylashgan. Barcha zodiaklar devor maydoniga qadab qurilgan. Gumbazli berk dahliz ustidagi devor ustida bir-biridan o'rtacha 1,5 m masofada nayza ko'rinishidagi mergan yo'ylar qo'yilgan.

1965 va 1968-yillarda shimoliy devordagi (shimoli-sharq burchaktan hioblaganda) uchinchi-oltinchi zodiaklar yonida, g'arb devoridagi janubi g'arb zodiaklar yonida, darvoza va janub devoridagi ikki zodiak yonida qurilish uchun taxlab qo'yilgan ko'p miqdordagi g'ishtlar topildi.

Darvoza imoratiga kirish joyidan shimol tarafda, daraga urilgan devorda bir qatorda uch belgi hamda uning ustida bir belgi qo'yilgan. Belgilar loyga 2-3 mm chuqurlikka qoziq bilan tilip bitilgan. Yozuv ustidagi belgini V.A. Livshits "ustaning", qurilish boshlig'ining tamg'asi, deb hisoblasa bo'ladi. Tamg'a xorazmcha "yumshoq", "muloyim", "lozim darajada qattiq emas", "mustaqil emas", deb o'qiladi.

Yozuv darvoza devorlari ichidagi qurilish vaqtidayoq yuborilgan gumbazli qal'aga tegishli bo'sa kerak."Usta" bajarilgan ishdan minnatdor bo'lmagan bo'lsa kerak shu sababli ish tugaganidan keyin, unga belgi qo'ygan. Qo'rg'on markazida, hovlida 5 metr o'radagi chuqur bor. Bu yerda ehtimol, quduq bo'lgan. Qo'rg'on miloddan avvalgi IV-III asrlarda qurilgan deb hisoblanadi. Agar shunday bo'lsa yozuv qo'rg'on qurilgan davrga tegishli bo'ladi. Miloddan avvalgi IV-II asrlarga oid bronza o'q, miloddan avvalgi IV-III asrlarga tegishli terib olingan loydan ishlangan idish uzundilari qo'rg'onni miloddan avvalgi IV-III asrlarga tegishli deb hisoblash imkonini beradi.

Ayozqal'a III. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani hududida joylashgan. Shakli parallellogrammga o'xshash, maydoni 4 gektar (260x180 m) ga yaqin. Yodgorlikning ichki devorlarida, shunday bo'lsa ham bazi joylarda asos (sokol)



ustida xom g'isht (40-42x40-42x11 sm) taqlamlari saqlanib qolgan. Paxsa asosli yasalma "yostiq" ustiga qo'yilgan. Yostiq balandligi 15-20 sm. Tashqi devor qalinligi asosda 3,20 metr ichi devorniki esa 2,10 metr, dahlizning eni 2,70 metr. Qo'rg'on devori butunlay perimetr bo'yicha to'g'riburchak shakldagi zodiaklar bilan mustahkamlangan.

Zodiaklarning eni 8-9 metr bo'lib, ular har 21-22 metrda joylashgan. Qo'rg'on burchaklarida tarhi kvadrat shaklda, o'lchami 11x11 metr bo'lgan zodiaklar joy olgan. Shaharda kirish yo'lga janubiy devor o'rtasida bo'lib 13x13 metr o'lchamdagi darvoza himoya devori bilan o'ralgan. Otlastirma yo'lga kirish qismi undan janubda joylashgan bir devorli zodiak bilan kuchaytirilgan. Qo'rg'onning ichki maydonida hech narsa qo'yilmagan. Orqa tomoni – orqa burchakka yaqin o'rinda, orqa devor yonida o'lchami 49x59 metr bo'lgan tarhi to'g'riburchak shaklidagi mustahkamlangan joy qoldig'i bor. U g'arb sharq yo'nalishida, markazidan dahliz bilan xoch shaklida deyarli 4 qismga bo'lingan. Joy uch tomondan dahlizlar, o'rtasida to'g'riburchak shakldagi zodiak bo'lgan devor bilan o'rab olingan, orqa tomonda bo'lsa qal'a devori taqalgan. Tashqi devor qalinligi 1,65 metr ichkisini – 1,50 metr, dahlizning eni 1,90 metr. Zodiaklar tashqi tomonga 3,70 metr turtib chiqqan, eni 5,35 metr, xona kvadrat shaklda, o'lchami 2x2 metr.

1939-yili S.P. Tolstov tomonidan imoratda olib borilgan imoratlar uning hassasi uning alohida tuzilishga ekanligini aniqlash va kushonlar davriga tegishli deb hisoblash imkonini berdi. Qo'lga kiritilgan yangi materiallarga asoslanin Ayozaqal'a III ning hammasidan ilgari, burchaktagi binoning yuzaga kelish davrini mil.avv V-IV asrlarga tegishli yoki IV asrga tegishli, deb hisoblash mumkin. Teskari holatda shahriston orqa devori to'g'richizig'ining siljishi va binoning unga taqalishi sababi va kechki arxaik davrga tegishli va Qang'xa loydan yasalgan idishlari unga qayerdan tushib qolganiga tushuncha berish qiyinchilik tug'diradi. Statsionar arxeologik qazishmalar davrida ham binoning sanasini shunday qilib belgilash o'z tastig'ini topdi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralidagi PF-4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // <http://lex.uz/pages/getpage.aspx?last id=3107036>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevralidagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <http://lex.uz/docs/> 3117025.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Xalq so'zi, 2017-yil, 20-sentabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning olimlar, akademiklar,



tadqiqotchi va talabalar bilan uchrashuvi. 2019-yil 24-may. Uza.uz – O'zbekiston milliy axborot agentligi.

5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q// Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T-7. Toshkent 1999.

6. Абаев В.И. Миф и история в Гатах Зороастра // Историкофилологические исследования. – М.: Наука, 1974. – С. 310-321.

7. Abdullaev N. "Avesto" va Xorazm Vohasi folklori // O'zbekiston tarixi, 2001. – № 3. – В. 38-42. 230

8. Абрамзон С.М. Формы родо – племенной организации у кочевников Средней Азии // Труды Института этнографии. – М., 1951. Т. XIV. – С. 152-156.

9. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar/ Tanlangan asarlar. Tarjimon A. Rasulov. – Toshkent: Fan, 1968. Т. 1.– 416 б.

10. Аванесова Н.А. Степи Севера и оазисы Юга: проблема культурных взаимодействий в эпоху бронзы // Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. – Алма-Ата, 1987. – С. 53-55.

11. Аванесова Н.А. Ранние Андроновские комплексы Средней Азии // Палеоэкология и проблемы первобытной археологии Центральной Азии. – Самарканд, 1992. – С. 51-53.

12. Аванесова Н.А. Новое о проникновении пастушеских племен тбронзового века в земледельческие оазисы на юге Узбекистана // Изучение культурных взаимодействий и новые археологические открытия. – СПб., 1995. – С. 82-86.

13. Avanesova N. Buston VI – the peculiarities of the Protobactrian complex of zbekistan // Information bulletin Univercrite of Pennsylvania, 1996. –P. 141-155.